

О‘ЗBEKISTON MINTAQALARINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI KONSEPSIYASI

Yusupov Nurbekjon Xasan o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyoti va servis institute

“Menejment” kafedrası Assistent

Haydarov Shahzodbek Ikrom

o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis institute

„Menejment” yo’nalishi talabasi

Annostatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi jamoatchilik muhokamasi uchun qaytadan e’lon qilingan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: BMT, Jahon Banki, Osiyo taraqqiyot banki, YeAES, inson kapitalining sifat darajalari.

Аннотация: В данной статье представлены данные о повторной публикации для общественного обсуждения Концепции комплексного социально-экономического развития Республики Узбекистан до 2030 года.

Ключевые слова: ООН, Всемирный банк, Азиатский банк развития, ЕАЭС, уровни качества человеческого капитала.

Annotation: This article presents information on the re-publication for public discussion of the Concept for the comprehensive socio-economic development of the Republic of Uzbekistan until 2030.

Keywords: UN, World Bank, Asian Development Bank, EAEU, levels of human capital quality.

Kirish. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyotida asosiy rol o'ynaydi. Bu jarayon tabiiy resurslar, inson kapitali, infratuzilma va investitsiyalarni samarali boshqarish orqali hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonda bu yo'nalish mustaqillik yillaridan beri davlat siyosatining markazida bo'lib, 2023 yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi orqali yangi bosqichga chiqdi. Strategiya 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha 100 ta maqsadni o'z ichiga oladi va mintaqalarning mutanosib rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Masalan, reyting baholash tizimi mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirdi, mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. 2025 yilda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sishni namoyish etib, yanvar-sentyabr oylarida YAIM 7,6% ga oshdi, bu esa mintaqaviy loyihalar hisobiga erishilgan natijalardan dalolat beradi.

Asosiy qism. BMT, BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Birlashgan Arab Amirliklarining ekspertlari, mahalliy ilmiy-tadqiqot muassasalar olimlari, respublika vazirlik va idoralari tomonidan keng muhokama qilingan, quyidagi ustuvor maqsad va yo'nalishlarni qamrab oluvchi O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari dastur sifatida qabul qilinadi:

-institutsional o'zgarishlar va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy institutsional o'zgarishlarni, iqtisodiy o'sishni miqdoriy ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tishi, YeAES va Jahon savdo tashkilotiga integratsiyasini o'z vaqtida bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda mamlakat

iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish, makroiqtisodiy institutlarni kuchaytirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash;

-iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan o'rta va uzoq muddatlarda mamlakat iqtisodiy o'sishining yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, sohalarning resurs iste'moli darajasini pasaytirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyotni o'rta darajadagi texnologiyaga asoslangan xom-ashyo va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchidan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchiga o'tkazish, amaliyotga yashil iqtisodiyot talablarini joriy etish, turizm sohasining mavjud salohiyatidan oqilona foydalanish orqali respublikani mintaqada turizm markaziga aylantirish;

-inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borish orqali inson kapitalini sifat darajasini yaxshilash, aholini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash asosida ularning real daromadlarini oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish hamda BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari" ustuvor yo'nalishlarini hayotga to'liq tatbiq etish;

-innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning me'yoriy huquqiy bazasini yaratish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish, jahonning ilg'or innovatsion yutuqlarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy-tadqiqotni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushini oshirish, ilmlarga asoslangan iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanishga o'tish uchun zamin yaratish;

-muhandislik kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan yo'l infratuzilmasini yaxshilash hamda ularni xalqaro infratuzilmaga integratsiyasini jadallashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash, dasturiy ta'minot sohasini rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi qulay infratuzilma yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasi obektlarini qurish va rekonstruksiya qilishda xususiy sektorni jalb etish;

-investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashning ustuvor yoʻnalishlari asosida natijaga yoʻnaltirilgan investitsiya siyosatini olib borish, iqtisodiyotni investitsion jozibadorligini taʼminlagan holda qimmatli qogʻozlar va moliya bozorini rivojlantirish orqali kapital qoʻyilma hajmini oshirish, xususiy mulk ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, qonun ustuvorligini taʼminlash institutlari faoliyatlarini takomillashtirish yaʼni, amaliyotga oʻrta biznesni kiritish va uning meʼyoriy-huquqiy asosini ishlab chiqish hamda uning ulushini oshirish, iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirish;

-hududlarni mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari etib belgilangan mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligini yanada oshirish, shaharsozlik va urbanizatsiya meʼyorlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, hududlarni barqaror rivojlanishini taʼminlash hamda ularning faoliyati samaradorligini baholashda milliy reyting tizimini joriy etish.

Oʻzbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasiga koʻra, uning maqsadi – 2030 yilga qadar yuqori darajali inson kapitali, innovatsiyalarga asoslangan real sektorning rivojlanishi va natijaga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilishi orqali ijtimoiy siyosatga yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirilishi, respublikani Jahon banki klassifikatori boʻyicha oʻrtadan yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga kirishini taʼminlaydi. Konsepsiyada belgilangan ustuvor vazifalarning oʻz vaqtida bajarilishi mamlakatni 2030 yilda aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshishi, mehnat bozorida barqaror yuqori daromadli ish oʻrinlarining yaratilishi hamda aholi kam taʼminlangan qatlamini ikki marotabaga qisqarishiga olib keladi. Mazkur maqsadlarga quyidagi miqdoriy va sifat koʻrsatkichlarni amalga oshirish orqali erishiladi: aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshish, mehnat bozorida doimiy yuqori daromadli ish oʻrinlarining yaratilishi hamda aholi kam taʼminlangan qatlamini ikki martaba qisqarishiga olib keladi:

- iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha yillik 6,4 foiz, kapital qo'yilmalar 9,9 foiz, eksport 9,6 foizni tashkil etishi;
- ishsizlik darajasi 9,3 foizdan 5,2 foizga, inflatsiya darajasi 14,3 foizdan 4,3 foizga pasayishi;
- iqtisodiy o'sishning asosiy yangi drayveri o'rta texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,3 martaga (YaIMdagi ulushini 2018 yil 26,3 foizdan 2030 yilda 33,3 foizga), qurilish va xizmat ko'rsatish sohasini 2,1 martaga hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 1,8 martaga oshirish;
- iqtisodiy o'sishda intensiv omillarining ulushini oshirish, jumladan, muqobil va qayta tiklanuvchi energiyaning energiya balansidagi ulushini 25 foizga yetkazish, energiya samaradorligini 2 baravarga, mehnat samaradorligini esa 1,8 baravarga oshirish;
- oliy ta'lim xizmatlari qamrov darajasini 40 foizga, iqtisodiyot mutaxassislariga bo'lgan talabini qondirish darajasini esa 90-100 foizga yetkazish, ba'zi yirik universitetlarning (kamida beshtasi) dunyodagi eng ilg'or 500 universitetlar qatoriga kirishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlari qamrov darajasini 2030 yilga borib 85 foizga yetkazish, o'quvchilar bilimni baholash tizimiga xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS dasturlarini joriy etish;
- aholini o'rtacha umr ko'rish yoshini 78-80 yoshga yetkazish, onalar o'limini uchdan bir qismga, yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'limi darajasini ikki martaga kamaytirish;
- aholini uy-joy (kishi boshiga 20 kv.m), sifatli ichimlik suv (100 foiz), elektrenergiyaga (100 foiz) bo'lgan talabini to'liq qondirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlarni YaIMdagi ulushini 1-1,5 foizga, olimlar va tadqiqotchilarning bandlardagi ulushini 0,4 foizga, biznes sektorini ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlari ulushini 50-55 foizga yetkazish;
- YaHM o'rtacha yillik o'sish sur'atini 107,3 foiz, hududiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmi o'sish sur'atlarini 108,6 foiz, xizmatlar sohasini 108,1 foizni tashkil etishini ta'minlash;

-mamlakat hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nomutanosibligini qisqartirish, jumladan, YaHM 3,7 martadan 2,8 martaga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni 13,5 martadan 8 martaga, xizmatlar sohasini 8,9 martadan 6,3 martaga, shuningdek respublika urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish.

Konsepsiyada belgilangan yettita ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirilishi natijasida 24 ta xalqaro reyting va indekslarda respublika o‘rnini yaxshilash, jumladan, 2030 yilda iqtisodiy erkinlik indeksini 140 o‘rindan 70 o‘ringa, statistika salohiyati indeksini 124 o‘rindan 50 o‘ringa, global innovatsion indeksini 50 o‘ringa, biznesni yuritish indeksini 76 o‘rindan 20 o‘ringa, sanoat raqobatbardoshligi indeksi 70 o‘ringa, inson kamoloti indeksini 105 o‘rindan 40 o‘ringa, logistika samaradorligi indeksini 99 o‘rindan 50 o‘ringa, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotning kredit reytingini uchinchi pog‘onaga ko‘tarish prognoz qilinmoqda.

Bundan tashqari, konsepsiyada uzoq muddatlarga mo‘ljallangan davrda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yettita ustuvor yo‘nalishlardan iborat zaruriy islohotlarni hayotga tatbiq qilish samaradorligini baholash maqsadida yuqorida keltirilgan 24 ta xalqaro reyting va indekslarni o‘zida qamrab olgan “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” (KPI - Key performance indicators) yagona portali orqali mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan monitoringi olib boriladi.

Xulosa qismi. Eslatib o‘tamiz, 7 oktabr kuni ham normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi joylashtirilgan. Loyiha muhokamasi 22 oktyabrga qadar davom etgan. O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi jamoatchilik muhokamasi uchun qaytadan e‘lon qilindi.

BMT, BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Birlashgan Arab Amirliklarining ekspertlari, mahalliy ilmiy-tadqiqot muassasalar olimlari, respublika vazirlik va idoralari tomonidan keng muhokama qilingan, quyidagi ustuvor maqsad va yo‘nalishlarni qamrab oluvchi O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar

ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yoʻnalishlari dastur sifatida qabul qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻxati

1. Макаров И.Н., Бизин С.В. - Региональная экономика и управление развитием региона. Учебное пособия. Воронеж: НАУКА-ЮНИПРЕСС, 2021. - 116с.

2. Кнауб Р.В., Шамаева Е.Ф., Анисимова О.В., Горюнова Е.А. - Устойчивое развитие. Учебное пособие. Томск-Москва-Дубна: издательство РАЕН, 2021. - 264с.

3. Данилина М.В., Терновсков В.Б. - Устойчивое развитие. Учебное пособия. Москва: РУСАЙС, 2020. -126с.

4. Marin Drinov Management of socio-economic transformations of business processes: current realities, global challenges, forecast scenarios and development prospects. Scientific monograph. Publishing House of Bulgarian Academy of Sciences: Sofia, 2023. -327p.

5. Abdurakhmonov Q.X. Inson resurslarini boshqarish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. — 384 b.

Axborot manbalari

1. <https://kun.uz/13128467>

2. <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>

3. <https://uzbekistan.un.org/uz/112375-o%E2%80%98zbekiston-respublikasi-prezidenti-2021-2030-yillarda-o%E2%80%98zbekiston-respublikasi-aholisini>